


Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil yanvar)

2019 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida 2,8 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 9,7 mingta (13,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 71,7 mingtani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	746	711	13
 Sanoat	14076	13706	352
 Qurilish	5755	5595	182
 Savdo	16161	15725	1696
 Tashish va saqlash	3076	3003	57
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5409	5172	115
 Axborot va aloqa	2833	2747	63
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1423	1395	31
 Boshqa turlari	24513	23700	341



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 73,9 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,8 % savdo, 19,0 % sanoat, 7,8 % qurilish, 1,0 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 33,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (10116 ta), Chilonzor (9514 ta), Mirzo Ulugbek (8455 ta), Olmazor (7711 ta), Shayxontohur (7310 ta), Yakkasaroy (6664 ta) va Uchtepa (6480 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirobod (6291 ta), Yashnobod (5540 ta), Sergeli (4290) hamda Bektemir (1621 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, mingda.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **71 754** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 9,7 mingta (13,5 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdo, 19,1 % sanoat, 7,8 % qurilish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 33,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (9769 ta), Chilonzor (9104 ta), Mirzo Ulugbek (8302 ta), Olmazor (7609 ta), Shayxontohur (6958 ta), Yakkasaroy (6588 ta), Uchtepa (6228) va Mirobod (6121 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5289 ta), Sergeli (4189 ta) hamda Bektemir (1597 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda






Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2019 yil yanvar oyida 2850 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 60,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Uchtepa (534 ta), Olmazor (445 ta), Chilonzor (350 ta), Yunusobod (307 ta), Shayxontohur (248 ta), Mirzo Ulug'bek (212 ta) va Bektemir (158 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirobod (155 ta), Yashnobod (152 ta), Sergeli (146 ta) hamda Yakkasaroy (143 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1696 ta), sanoat (352 ta), qurilish (182 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (115 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (63 ta), tashish va saqlash (57 ta), sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar (31 ta) hamda qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi (13 ta) faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yillar kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Respublika boʻyicha jami	1032	100	1119	100	2850	100
Savdo	204	19,7	253	22,6	1696	59,5
Sanoat	273	26,4	228	20,4	352	12,3
Qishloq va oʻrmon xoʻjaligi	21	2,0	28	2,6	13	0,5
Qurilish	102	10,0	108	9,6	182	6,3
Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	93	9,0	108	9,6	115	4,0
Tashish va saqlash	48	4,7	53	4,7	57	2,0
Axborot va aloqa	27	2,7	65	5,8	63	2,3
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish	11	1,0	17	1,6	31	1,1
Boshqa turlari	253	24,5	259	23,1	341	12,0

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingda






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 fevral holatiga 63,1 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 10,3 mingta, oilaviy korxonalar – 2,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 49,1 mingta va boshqalar 1,5 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4865 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1194 taga yoki 24,5 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
davlatlar kesimida soni, birlikda**

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2244 tasi qo'shma korxonalar, 2621 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod (808 ta yoki jami ulushi 16,6 %), Yakkasaroy (779 ta yoki 16,0 %), Yunusobod (652 ta yoki 13,4%), Mirzo Ulug'bek (606 ta yoki 12,5%), Chilonzor (565 ta yoki 11,6%), Yashnobod (393 ta yoki 8,0%) va Shayxontohur (343 ta yoki 7,0%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor (272 ta yoki 5,6%), Sergeli (193 ta yoki 4,0%), Uchtepa (140 ta yoki 2,9%) va Bektemir (114 ta yoki 2,3%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p savdoda 1349 tani (27,7 %), sanoatda 1307 tani (26,9 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1068 tani (22,0 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda 420 tani (8,6 %), yashash va ovqatlanish

bo'yicha xizmatlarda 243 tani (5,0 %), axborot va aloqada 200 tani (4,1 %), tashish va saqlashda 158 tani (3,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 66 tami (1,4 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 54 tani (1,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 166 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 20 ta, Turkiya Respublikasi – 29 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 15 ta, Qozog'iston Respublikasi – 25 ta, va Koreya Respublikasi – 15 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019 yil boshidan Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (67 ta), sanoat (25 ta), qurilish (25 ta), va boshqa faoliyat turlari (49 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	29	38,7	25	15,1
Savdo	19	25,3	67	40,4
Qurilish	5	6,7	25	15,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2	2,7	5	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	4,0	5	3,0
Axborot va aloqa	5	6,7	8	4,8
Tashish va saqlash	2	2,7	4	2,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1,3	3	1,8
Boshqa turlari	9	11,9	24	14,4



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 62,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 15,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8,4 mingtasi (13,6 %) Yunusobod, 7,8 mingtasi (12,6 %) Chilonzor, 7,0 mingtasi (11,4 %) Mirzo Ulug'bek hamda 6,8 mingtasi (11,0 %) Olmazor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 62,4 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 15,5 mingtasi (24,9 %) – savdo, 13,6 mingtasi (21,8 %) - sanoat, 5,5 mingtasi (8,9 %) - qurilish, 0,6 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,1 mingtasi (8,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2,9 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash, 2,6 mingtasi (4,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,1 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 15,1 mingtasi (24,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oylarida 2,7 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 62,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa tumani (529 ta), Olmazor tumani (440 ta), Chilonzor tumani (340 ta), Yunusobod tumani (298 ta), Shayxontohur tumani (242 ta), Mirzo Ulug'bek tumani (202 ta), va Bektemir (157 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirobod tumani (150 ta), Sergeli tumani (143 ta), Yakkasaroy tumani (137 ta) hamda Yashnobod tumani (147 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1696 ta), sanoatda (350 ta), boshqa faoliyat turlari sohasida (282 ta), qurilishda (181 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (115 ta) va axborot va aloqada (61 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (57 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (30 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 2357 tani tashkil etib, ulardan 2286 tasi yoki 96,9 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,7 % yoki 998 tasi sanoat, 17,0 % yoki 389 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,9 % yoki 386 tasi savdo, 2,4 % yoki 55 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 39 tasi qurilish, 0,8 % yoki 19 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 37 tasi axborot va aloqa hamda 14,9 % yoki 341 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2019 yilning yanvar oyida jami 147 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -144 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017 yilda 280 ta, 2018 yilda 291 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvarida ushbu ko'rsatkich 147 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 144 taga tugatish kamaygan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida
dinamikasi, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 147 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 40 tasi (27.2 %) savdo, 29 tasi (19.7 %) sanoat, 8 tasi (5.4 %) qurilish, 1 tasi (0.7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7 tasi (4.8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (4.8 %) tashish va saqlashda, 5 tasi (3,4 %) axborot va aloqada, 2 tasi (1,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 48 tasi (32,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq va o'rmon xo'jaligi turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami					
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	1,4	1	0,7	-3
sanoat	52	17,9	29	19,7	-23
qurilish	32	11,0	8	5,4	-24
savdo	63	21,6	40	27,2	-23
tashish va saqlash	12	4,1	7	4,8	-5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25	8,6	7	4,8	-18
axborot va aloqa	10	3,4	5	3,4	-5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1,7	2	1,4	-3
boshqa turlari	88	30,3	48	32,6	-40

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2019 yil yanvar oyida 136 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -134 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 39 tasi (28,7%) savdo, 29 tasi (21,3 %) sanoat, 8 tasi (5,9 %) qurilishda, 1 tasi (0,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7 tasi (5,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (5,1 %) tashish va saqlashda, 5 tasi (3,7 %) axborot va aloqada, 2 tasi (1,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 38 tasi (28,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Mirobod tumanida -23 ta, Yunusobod tumanida -6 ta, Mirzo Ulug'bek tumanida -8 ta hamda Yakkasaroy tumanida -9 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
boshlig'i Rashidov Aziz
Tel.:71-230-88-31**